

XOTIN QIZLARNING MEHNAT HUQUQLARI :AMALDAGI MUAMMO VA TAKLIFLAR

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi 29-22-guruh talabasi*

Obloqulova Sabina

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada xotin-qizlarning mehnat huquqlariga oid dolzarb masalalar, mavjud qonunchilik bazasi va ularning amaliyotdagi qo'llanilishi tahlil qilinadi. Ayollar mehnat bozori ishtirokchilari sifatida duch kelayotgan asosiy muammolar

— ishga qabul qilishdagi diskriminatsiya, ish haqi tafovuti, homiladorlik sababli ish o'rnini yo'qotish xavfi, rahbarlik lavozimlarida kam ishtirok etish holatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, huquqiy, ijtimoiy va madaniy takliflar asosida muammoni yumshatish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, mehnat huquqlari, gender tengligi, diskriminatsiya, qonunchilik, ish haqi, ijtimoiy muhofaza, rahbarlik lavozimlari

АННОТАЦИЯ: В статье рассматриваются актуальные вопросы, касающиеся трудовых прав женщин, анализируется действующая законодательная база и практика её применения. Основное внимание уделяется таким проблемам, как дискриминация при приёме на работу, разница в заработной плате, риск потери работы из-за беременности и низкое представительство женщин на руководящих должностях. Также предлагаются правовые, социальные и культурные меры по улучшению ситуации.

Ключевые слова: женщины, трудовые права, гендерное равенство, дискриминация, законодательство, заработная плата, социальная защита, руководящие должности

ANNOTATION: This article examines pressing issues related to women's labor rights, analyzing existing legal frameworks and their practical implementation. It explores key challenges faced by women in the labor market, including hiring discrimination, wage

disparities, risk of job loss due to pregnancy, and underrepresentation in leadership positions. The study also offers legal, social, and cultural recommendations to address and alleviate these problems.

Keywords: women, labor rights, gender equality, discrimination, legislation, wages, social protection, leadership positions

KIRISH

Xotin-qizlarning mehnat huquqlari masalasi butun dunyo bo'ylab dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Tarixan ayollarning jamiyatdagi roli turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, zamonaviy demokratik jamiyatda xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqlarda mehnat qilishi inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Shunga qaramay, bugungi kunda ham ayollar mehnat bozorida bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolar nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy, balki huquqiy asosga ega bo'lgan murakkab masalalardir.

Aksariyat mamlakatlar konstitutsiyalarida ham, mehnat kodekslarida ham erkak va ayol teng huquqli ekanligi ta'kidlanadi. Lekin amaliyotda bu tenglik ko'p hollarda to'liq ta'minlanmaydi. Misol uchun, xotin-qizlarning ishga qabul qilinishida diskriminatsiya holatlari kuzatiladi, ular uchun ish haqi erkaklarga qaraganda pastroq belgilanadi, mehnat sharoitlari esa ko'pincha noqulay bo'ladi. Ayrim ish beruvchilar homilador yoki farzandli ayollarni yollashdan tiyilishadi, bu esa gender tenglik prinsiplariga ziddir.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilishda muhim huquqiy bazani yaratgan. Xususan, Mehnat kodeksi, "Ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar va teng imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun, "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirish strategiyasi" kabi hujjatlar mavjud. Biroq, ushbu huquqiy normalarning ijrosi va amaldagi holat orasida jiddiy tafovut mavjud.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Bugungi kundagi muammolardan biri — xotin-qizlarning ish joylaridagi tazyiqlarga uchrashi. Bu holat ayniqsa xususiy sektorda ko'proq uchraydi. Rasmiy statistikada bunday tazyiqlar deyarli aks etmaydi, chunki ko'plab ayollar bu borada rasmiy murojaat qilishdan

choʻchishadi. Bu holat nafaqat ularning huquqlariga tajovuz boʻlsa, balki jamiyatda gender tengligiga putur yetkazadi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun taʼlim tizimi, huquqiy madaniyat va ijtimoiy ongda jiddiy islohotlar zarur.

Bundan tashqari, ayollarning yuqori lavozimlarga tayinlanishidagi gender disbalans ham dolzarb masalalardan biridir. Koʻplab iqtidorli va malakali xotin- qizlar mavjud boʻlishiga qaramasdan, ular rahbarlik lavozimlarida kam uchraydi. Bu holat ham ijtimoiy stereotiplar, ham institutsional toʻsiqlar bilan bogʻliq. Odatda, ayollar “yumshoq” kasblarga yoʻnaltiriladi, texnik, muhandislik yoki siyosiy sohalarda ularning ishtiroki kam boʻladi. Bu esa, oʻz navbatida, iqtisodiy samaradorlikka ham salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Jamiyatda xotin-qizlarning mehnat huquqlarini toʻlaqonli taʼminlash faqat qonunlar bilan emas, balki ijtimoiy-siyosiy muhit, jamoatchilik fikri va madaniyat orqali ham amalga oshiriladi. Shuning uchun, gender tengligini taʼminlash yoʻlida ommaviy axborot vositalari, taʼlim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlarining roli beqiyosdir. Ayniqsa, yosh avlodni gender tenglik ruhida tarbiyalash, ayollar mehnatini qadrlashga oʻrgatish orqali kelajakda yanada adolatli va teng jamiyat qurish mumkin boʻladi.

Xususan, Oʻzbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi jihatidan barcha mehnat resurslarining 48% tashkil etadi. 2013-yil holatiga koʻra Markaziy Osiyoda mamlakatlarida siyosiy sohadagi ishtiroki parlamentdagi oʻrinlari boʻyicha Tojikiston eng past koʻrsatkich- 14,7% ni tashkil qiladi.⁴ Qozogʻiston- 23%, Qirgʻiziston- 23% bilan farqlanadi. Bu koʻrsatkich Oʻzbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tarkibida 22%, Senatda 15% ni ayollar tashkil etadi. Bu koʻrsatkichlar bugungi kunda ijobiy tomonga oʻzgarib xususan, Oʻzbekistonda Qonunchilik palatasida 32%, Senatda 25%ga koʻtarilgan⁵. Shunga doir

islohotlar natijalari jamiyatda hukm suriyotgan farovonlikni taʼminlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Ushbu maʼlumotlar orqali Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan Oʻzbekiston Respublikasida xotin-qizlar teng huquqliligining kafolatlari, jamiyat hayotidagi oʻrni, davlat boshqaruv sohasidagi faoliyatlari, xotin-qizlar bandligini taʼminlash, ularni kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish, jamiyatdagi barcha sohalar doirasida xotin-qizlar

faolligini oshirishga doir bosqichlarni o'rganish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy - tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

- jamiyatda shakllangan “ayollarga xos kasblar” tushinchasini muomaladan chiqarish yoki uning turlarini kengaytirish, erkin kasb tanlashga imkon yaratish;
- uy vazifalari, bola tarbiyalash kasbiy faoliyatga to'siq bo'lmasligi uchun masofadan turib ishlash faoliyatini yo'lga qo'yish;
- nodavlat tashkilotlari bilan keng hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali xotin-qizlarda ijodkorlikni rag'batlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish. Bu orqali o'z qobiliyatlarini

yanada rivojlantirish (uy sharoitida), namoyon qilishiga imkon yaratish;

- huquqiy ta'limda xotin-qizlar savodxonligini oshirish maqsadida loyihalarni yo'lga qo'yish, siyosiy karyera, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish, ularga mos ish o'rinlari ustida yangicha yondashuv; oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarni kelishuv asosida amalga oshirish, erkak va ayol muammoli vaziyatlarda tenglik prinsipini o'zaro hurmat va bir-birini tushinish tarzida amalga oshirish;
- nasl, farzand tarbiyasi masalalarida tenglikka rioya qilgan holda, ayolning jamiyatdagi o'rnini topishda, kasb-hunar masalalarida qo'llab-quvvatlash;
- nohaqlikka uchragan, zo'ravonlik qurboniga aylangan xotin-qizlar bilan davlat, jamiyat hamkorligini yanada kuchaytirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning tizimli mexanizmini ishlab chiqish kabilardir.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni loyihasi hamda amaliy tadbirlar rejasi loyihalari ishlab chiqilib,

jamoatchilik muhokamasi uchun www.uzbekistan2030.uz veb-saytiga joylashtirildi. Ushbu loyihalar joriy yilning 9-fevral kuniga qadar keng jamoatchilik va ekspertlik muhokamalaridan o'tkaziladi. Bu yilgi farmon hamda amaliy tadbirlar rejasi loyihalariga ko'ra, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada kuchaytirish maqsadida 2024-yil 1-martdan boshlab xotin-qizlar bandligini ta'minlashga

ko'maklashish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb- hunarga o'qitish va o'zini o'zi band qilish vazifalari belgilangan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlar ko'zda tutilgan: Birinchidan, xotin-qizlar bandlik dasturini tasdiqlash hamda dastur doirasida xotin-qizlarning kichik biznes loyihalariga imtiyozli kreditlar ajratish belgilangan. Bunda xotin-qizlar bandligini ta'minlashning zamonaviy tashkiliy- huquqiy mexanizmlarini yetarlicha joriy qilish, ishsiz xotin-qizlarni kasbga tayyorlash va ularning kasb malakasini oshirish xotin-qizlarning ishsizlik darajasini pasayishiga olib keluvchi chora-tadbirlarni belgilab beradigan bandlik dasturini tasdiqlash nazarda tutilgan. Ushbu bandlik dasturdan asosiy maqsad xotin- qizlarning kichik biznes loyihalariga imtiyozli kreditlar ajratish orqali ularning tadbirkorligini rivojlantirish ko'zlangan.

Bu orqali xotin-qizlarning turmush tarzini yaxshilash va ularni iqtisodiy mustaqillikka erishishlariga, o'zini o'zi band qilishlariga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, oila byudjeti daromadlarini oshirish, uy mehnatidan foydalangan holda ishlab chiqarishni yanada kengaytirish orqali hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri bo'lgan ishsizlikni kamaytirish ko'zlangan. Ikkinchidan, har bir hududda xotin-qizlar hunarmandchilik markazlari va klasterlarini tashkil qilish ko'rsatilgan. Bunda xotin-qizlar o'zlarining yashash sharoiti, muhiti hamda yashayotgan hududining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda hunarmandchilikni o'rganishadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.03.2021-yildagi PQ- 5020-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2021-yil mobaynida har bir hududda asosan xotin-qizlar faoliyat yuritadigan hunarmandchilik turlariga ixtisoslashgan klasterlar faoliyati tajriba sifatida joriy etilgan edi.

Ushbu klasterlar qator hududlarda tajriba sifatida faoliyat yuritgani hamda samarali natijalar berganini ko'rishimiz mumkin. Ularning afzal jihati shundaki, klasterlar hunarmand ayollarni xomashyo bilan ta'minlaydi hamda ularning qo'l mehnati bilan yaratgan mahsulotlarini bozor narxida sotib oladi. Hozirgi kunda qo'l mehnati asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham talabgorligini

e'tiborga oladigan bo'lsak, hunarmandchilik orqali xotin-qizlar uydan chiqmagan holda, ortiqcha sarsongarchiliklarsiz barqaror daromadga ega bo'lishlarini alohida ta'kidlash lozim.

Shu bilan bir qatorda, ayollarimiz farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullana oladilar hamda ularni ham ushbu faoliyatga jalb qilib bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishlariga yordam beradi. Uchinchidan, xorijiy mamlakatlarda og'ir vaziyatga tushib qolayotgan o'zbekistonlik ayollarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish, xorijiy diplomatik tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlash va sayyor qabullar tashkil etish hamda muammolarni bartaraf etish vazifasi nazarda tutilgan. Bu vazifani amalga oshirish uchun chet elda yurgan xotin-qizlar mehnat muhojirlari geografiyasi va ro'yxatlarini aniqlash, ayollar bilan onlayn davra suhbatlarini o'tkazib, muammolarini aniqlash, ularga xorijda ishlashning qonuniy asoslari hamda odam savdosiga qarshi kurashishning mazmun-mohiyatini tushuntirish kabi amaliy chora tadbirlar ko'rsatilgan.

Bu bilan hozirgi paytda dolzarb muammolardan biri bo'lgan ayollar noqonuniy mehnat migratsiyasi natijasida kelib chiqayotgan og'ir oqibatlarni oldini olish hamda bartaraf etish imkoniyati vujudga keladi. Xotin-qizlarimizning huquqiy ong hamda huquiy madaniyatini rivojlantirish, ularni huquq va qonuniy manfaatlarini horijda ham qo'llab-quvvatlash hamda davlat muhofazasiga olish ushbu vazifaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. To'rtinchidan, ayollarni tazyiq hamda zo'ravonlikning turli shakllaridan himoyalash vazifasi ham ko'zlangan. Ushbu vazifani amalga oshirishga doir chora-tadbirlarda zo'ravonlikka uchragan xotin- qizlarga tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda professional yordam ko'rsatishning yagona tizimini tashkil qilish reglamentini tasdiqlash hamda zo'ravonlikdan aziyat chekkan ayollarni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan boshpana (shelter) va rehabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish belgilangan.

Bu orqali zo'ravonlikka uchrab qiyin ahvolga tushib qolgan ayollarga dastlabki tibbiy, psixologik, yuridik, ijtimoiy yordam berish maqsad qilingan. Zo'ravonlik oqibatida boshpanasiz qolgan ayollarni rehabilitatsiya markazlariga joylashtirib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan og'ir oqibatlarni oldini olish ko'zda tutilgan. Shuningdek, ushbu ayollarni

keyinchalik jamiyatga qo'shilib, mehnat faolitiyatini olib borishlari hamda osoyishta turmush tarzi kechirib, farzandlari tarbisida faol ishtirok etishlariga zamin yaratishga e'tibor qaratilgan. Beshinchidan, xotin-qizlarni mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunarlariga o'qitish orqali bandligini ta'minlashga ko'maklashish hamda ular o'rtasida tadbikorlikni rivojlantirish vazifasi nazarda tutilgan. Ushbu vazifaga erishish uchun 1. 85 ming nafar xotin-qizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda 2. 90 ming nafar xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitishga doir amaliy chora-tadbirlar belgilangan.

Bugungi rivojlanayotgan davrda xotin-qizlarni raqobatbardosh kasb-hunarlariga o'qitish malakali va yetuk ayol kadrlarni ko'paytirish imkonini beradi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, xotin-qizlar salohiyatidan yanada ko'proq foydalanish, iste'dodlarini namoyon etishiga ko'maklashish, kasbiy mahoratlarini oshirish davlatimiz rivojlanishiga, oilalar farovonligiga xizmat qiladi. Oltinchidan, yosh xotin-qizlarni tadbirkorlik, marketing, grafik-dizayn kabi zamonaviy kasblarga o'rgatish uchun "Qizlar akademiyasi" platformasi ishga tushirish va bu orqali yosh xotin-qizlar uchun turli tanlov, loyihalar, o'quv oromgohlari, stajirovkalar tashkil etish belgilangan. Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda yosh xotin-qizlarimizni ham zamonaviy kasblarga jalb qilish davr talabi bo'lmoqda. Ushbu platforma xotin-qizlar ilm-fan, innovatsion faoliyatning barcha sohalarida o'z bilimlarini oshirish, dunyoqarashlarini kengaytirishlari, tajriba almashishlari uchun keng imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda bilimlarni yangilab, kasbiy mahoratlarini oshirish, tajriba almashish har bir soha mutaxassislari uchun eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Aynan shunday platformalarning tashkil etilishi yosh xotin-qizlarimiz uchun yangi bilimlarni olishlari, shuningdek sohalariga doir turli tanlovlarda ishtirok etib, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishlariga, nufuzli tashkilotlarda stajirovka o'tashlari va keyinchalik ishga joylashishlariga imkon beradi. Ayollar nafaqat oila ravnaqi hamda farzandlar tarbiyasi bilan mashg'ul ona va uy bekasi bo'lishi, balki jamiyat hayotida ham o'z o'rniga ega bo'lishlari, turli sohalarda yuksak muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin.

Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi – 17 millioni xotin-qizlardir. Ularning manfaatlarini ta'minlash, jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy

siyosatining muhim yo'nalishidir. Oxirgi to'rt yilda bu borada 2 ta qonun, Prezidentning 6 ta farmon va qarori qabul qilindi. Birinchi marta Senatda Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Prezident raisligida ayni paytda o'tayotgan yig'ilishda xotin-qizlar salomatligi, aholi bandligi, ijtimoiy farovonlik va xavfsizlik muammolari muhokama qilinmoqda. "Eng achinarlisi, ayollarni xo'rlash, o'zini-o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish hamda omma oldida "savdoyi" qilish holatlari oddiy holatga aylanib bormoqda", - deya ta'kidladi prezident O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilishning normativ-huquqiy asoslarini yaratishga kirishildi.

Xususan, 1995-yil 2-mart kuni "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni e'lon qilindi. Farmon xotin-qizlar qo'mitalari tizimi rivojini yangi bosqichga ko'tardi va ayollar hayotining yanada yaxshilanishiga sharoitlar yaratdi. Bu borada xalqaro tajriba chuqur o'rganilib, O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo'lib 1995-yil 6-mayda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Xotin-qizlarning huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi va 1997-yil 30-avgustda "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaga qo'shildi. Shuningdek, mamlakat xotin-qizlari vakllari 1995-yil 6-mayda "Tinchlik, taraqqiyot va tenglik" shiori ostida o'tkazilgan Butunjahon ayollarning IV Konferensiyasida ishtirok etdilar.

Shundan so'ng O'zbekiston xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan Pekin deklaratsiyasiga qo'shildi. Mazkur konferensiyada dunyoning 189 mamlakatidan

47 ming ayollar ishtirok etib, xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeyini oshirishga qaratilgan bir qancha hujjatlar imzolangan hamda aniq maqsadlar belgilab olingan. Ana shu maqsadlardan biri Pekin deklaratsiyasiga ko'ra qatnashuvchi mamlakatlar uchun xotin-qizlar har bir tashkilotda xodimlar tarkibining 30% ni tashkil etishi kerakligi bo'yicha xalqaro standartga amal qilishi masalasiga rioya qilishi qayd etilgan. Respublikada 1998-yilni "Oila" yili, 1999-yil "Ayollar yili", 2001-yil "Onalar va bola yili", 2016-yil "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilinishi va tegishli dasturlar ishlab chiqilishi ayollarga bo'lgan e'tiborni davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi namunasidir.

Yangi qabul qilingan Konstitutsiyamizda “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi”(58-modda.) deb yozib qo'yilgan. Ayollarning oila va jamiyatdagi roli, xususan, farzand tarbiyasi va ijtimoiylashuvidagi ahamiyati mutafakkirlar tomonidan e'tirof etilgan. Abu Rayhon Beruniy o'z qarashlarida oila tinchligi bevosita oqila, aqlli, farosatli, tarbiyali ayollar qo'lida ekanligiga alohida ahamiyat qaratgan. Ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy: “Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”, deya ta'kidlaydi. Xotin-qizlarni sog'lom, madaniyatli, ma'rifatli, ilimli qilib tarbiyalashning juda katta ijobiy oqibatlari kuzatiladi.

Avvalo, barkamol, mehnatsevar, vatanparvar, bilimli avlod shakllanadi. Mamlakatimizning dunyo miqyosidagi mavqeyi yanada oshadi. Ijtimoiy taraqqiyotning inson manfaatlariga mos bo'lishi uchun ma'naviy– axloqiy me'yorlar ustuvor bo'lishi kerak. Jumladan, Yangilanayotgan O'zbekistondagi islohotlar ayollarning ijtimoiy rolini sezilarli darajada oshirdi. Xuddi shunday tendensiyalar Konstitutsiyaning 46-moddasida mustahkamlangan va ko'plab qonunlarida aks etgan erkaklar hamda ayollar uchun teng huquq va teng imkoniyatlar tamoyili O'zbekiston Respublikasida ham dolzarbdir. Bu borada Pekin Deklaratsiyasi va erkaklar hamda ayollar o'rtasidagi tenglik uchun harakat qilish platformasini amalga oshirish doirasida inson huquqlari va asosiy erkinliklarining xalqaro standartlariga amal qilinmoqda.

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faollashuvini keng targ'ib etish hamda qo'llab-quvvatlash maqsadida BMT Inson huquqlari bo'yicha 46-sessiyasida qayd etilganidek, ijtimoiy-siyosiy hayotda va tadbirkorlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlar endi qat'iy davom ettirilishi e'tirofga loyiqdir. O'zbekiston ham mazkur sohaga jiddiy e'tibor berish bilan birga uning huquqiy asoslarini yaratgan davlatlardan biridir. Pekin deklaratsiyasida xotin- qizlar masalasida nazarda tutilgan xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etilishi O'zbekistonda qator yillar davomida sekin kechdi. Shunday bo'lsa-da, gender tenglik borasida olib borilgan islohotlar ijobiy natijalari

O'zbekiston BMTning Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish konvensiyasi qo'mitasiga mazkur Konvensiyaning bajarilishi yuzasidan 2001, 2005, 2008, 2011, 2017-yillarda beshta milliy ma'ruzasini taqdim etdi va ular qo'mita tomonidan yuksak e'tirof etildi.

So'nggi yillarda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy siyosiy faolligini oshirishda davlat rahbari va hukumat tomonida qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" hamda "Xotinqizlarni va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi Qonunlarning qabul qilinishi ushbu sohadagi islohot va yangilanishlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston tarixida birinchi marta himoya orderi berish tartibi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunda belgilab qo'yildi. - Tahlil va natijalar (Analysis and results). Respublikada xotin-qizlar har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning qonuniy huquqlarini himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash maqsadida qator jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamg'armalar tashkil etildi. Bundan tashqari, 1995-yilda Xotin-qizlar resurs markazi, 1996–2000-yillarda "Sabr", "Mehri", "Ayol va jamiyat", "Hamdard", "Ayol va ekologiya", "Huquqshunos ayol", "Ijodkor ayol", "Ayol va salomatlik" va boshqa xotin-qizlar NNTlari tuzildi. 2001-yilga kelib O'zbekistonda xotin-qizlar masalalari bilan shug'ullanadigan hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar soni 100 dan ortiq bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 300 ga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlari respublika ayollarini manfaati yo'lida faoliyat olib bordi.

Ma'lumki, 15-may kuni jahon miqyosida "Xalqaro oilalar kuni" nishonlanadi. Ushbu bayram BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1993-yil 20-sentabrda qabul qilingan Xalqaro oila yili to'g'risidagi rezolyusiyaga muvofiq, 1994-yilning 15-mayidan buyon muntazam ravishda nishonlanib kelinmoqda. Xususan, Davlatimiz Rahbarining 2018-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 15-may har yili "Xalqaro oila kuni" sifatida mamlakatimiz bo'ylab keng nishonlanishi belgilab qo'yildi. Zero, ushbu sanani xalqaro

miqyosda nishonlashdan maqsad – jahon hamjamiyati diqqatini oilaviy qadriyatlarga va oila instituti bilan bog'liq muammolarga qaratish, oilalarni mustahkamlash hisoblanadi.

Globalashuv jarayoni oila va jamiyatda ayollar maqomini oshirish, barkamol avlod tarbiyasi, oilalarga ayniqsa yosh oilalarga yordamlashish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash, imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash hamda yosh oilalar bilan amalga oshiriladigan ijtimoiy ish yo'nalishlarini aniqlash, o'rganish, tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llabquvvatlashga doir ishlarni yanada 87"Innovations in Science and Technologies" ilmiy-elektron jurnalijadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur izchil amalga oshirilayotganligini e'tirof etish joiz.

Shuningdek 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ146 son qarori, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 30-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi, 2020-yil 6- noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, qaror va farmonlari bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. 01.03.2022 yildagi PQ-149-son Jumladan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938- son Farmoni aynan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiysiyosiy hayotidagi roli hamda faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash masalalariga qaratilganiligi bilan e'tiborlidir.

Xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotinqizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalari o'ta dolzarbdir. Xotin-

qizlarning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirishda quyidagilar muhimdir: chuqur bilim va salohiyatning tarkib toptirilishi, milliy qadriyatlar va urf-odatlarning ular ongiga singdirilishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlik, tadbirkorlik, ijodkorlik va tashabbuskorlik fazilatlarining barqarorlashuvi va boshqalar. Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish natijasida xotin-qizlarning oiladagi va jamiyatdagi mavqiyi yanada mustahkamlanadi va xotin-qizlarning mehnat faoliyati faollashishi, gender muammosining asta-sekin yechim topishi kabi ijobiy natijalarga erishiladi. Xotin-qizlarni sog'lom, madaniyatli, ma'rifatli, ilimli qilib tarbiyalashning juda katta ijobiy oqibatlari kuzatiladi. Avvalo, barkamol, mehnatsevar, vatanparvar, bilimli avlod shakllanadi. Mamlakatimizning dunyo miqyosidagi mavqeyi yanada oshadi. Ijtimoiy taraqqiyotning inson manfaatlariga mos bo'lishi uchun ma'naviy– axloqiy me'yorlar ustuvor bo'lishi kerak. - Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xususan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonunlarning qabul qilinishi bu boradagi huquqiy asoslarni mustahkamladi. 2019-yil mart oyida BMTning Nyu-Yorkdagi shtab-kvartirasida BMTning Xotin-qizlar holati bo'yicha komissiyaning 63-sessiyasida O'zbekistonning ayollar borasidagi davlat siyosati yuqori baholangan.

Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yil 22 dekabrda rezolyusiyasiga muvofiq, 11 fevral – Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar xalqaro kuni deb e'lon qilingan. Ushbu xalqaro sana butun dunyoda ayollar va qizlarning ilm-fan bilan to'laqonli shug'ullanishlariga teng imkoniyatlar yaratish, shuningdek, xotin-qizlarning huquqlarini kengaytirish maqsadida ta'sis etilgan. Shu munosabat bilan 2023 yil 10 fevral kuni BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ham bayonot berib, ilm-fan sohasida xotin-qizlar qanchalik ko'p bo'lsa, bundan ilm-fan shunchalik ko'p yutishini ta'kidladi. Bosh kotibning so'zlariga ko'ra, “Ayollar va qizlar ilmiy tadqiqot faoliyatiga xilma-xillik olib kiradi, ilm-fan asosiy kasbi bo'lgan fidoyilar safini kengaytiradi va ilmiy-texnikaviy sohani yangicha qarashlar hisobiga boyitadi”.

XULOSA

Xulosa qiliba Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini ta'minlash zamonaviy demokratik

jamiyatda nafaqat ijtimoiy adolatni, balki iqtisodiy rivojlanishni ham ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qonunchilikda gender tenglik tamoyillari mustahkamlangan bo'lsa-da, ularning amaliyotdagi ijrosi yetarli darajada emas. Xotin-qizlar ishga qabul qilishda, ish haqi belgilashda va lavozimga ko'tarilishda turli to'siqlarga duch kelishmoqda. Ayniqsa, homiladorlik, ona bo'lish, oilaviy majburiyatlar kabi holatlar ayollarni mehnat bozorida ijtimoiy jihatdan himoyasiz toifaga aylantirmoqda.

Muammoni hal etish uchun bir qator kompleks yondashuvlar zarur: qonunchilikni amalda to'liq va shaffof tatbiq etish, ish beruvchilarni gender tengligi tamoyillariga amal qilishga rag'batlantirish, ayollarni kasbiy tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kuchaytirish, mehnat munosabatlarida diskriminatsiyaning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish zarur. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida va ta'lim jarayonida gender tenglik masalalariga e'tiborni kuchaytirish orqali ijtimoiy ongda ayollarning mehnatdagi roli va huquqlarini qadrlash madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. — Toshkent: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi “Ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar va teng imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. — 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PQ–87-sonli qarori “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirish strategiyasi to'g'risida”.
4. Бахромова Ш.Р. “Гендерная политика и рынок труда в Узбекистане”. – Т.: «ФАН», 2021.
5. UN Women. “Gender Equality and Women's Empowerment in the World of Work.” – UN Report, 2022.
6. ILO (International Labour Organization). “Women at Work Trends.” – Geneva, 2020.
7. Qodirova D.X. “Ayollar huquqlarining huquqiy kafolatlari: O'zbekiston

tajribasi” // Huquqiy demokratik jamiyat: muammo va yechimlar. – 2022. –

№4.

8. Human Rights Watch. “Discrimination Against Women in Employment.” – 2021.

9. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi materiallari // www.parliament.gov.uz

10. Gender tenglik va ayollar huquqlari bo'yicha yillik monitoring hisobotlari // www.stat.uz